

Guliston davlat pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar va san’atshunoslik” kafedresi katta o‘qituvchisi, PhD, Mirzaliyev Ulug‘bek Begmurzayevich taqrizi ostida

**Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich**  
**Guliston davlat pedagogika instituti**  
**katta o‘qituvchisi, PhD.**

**Tel raq: +998 97 224 07 67**

**El.pochta:**

**kanimkulov812310@gmail.com**

**Orcid: 0009-0006-6069-009X**

**Xikmatova O‘g‘iloy**

**Guliston davlat pedagogika**  
**instituti 1-kurs talabasi.**

**Tel raq: +998 99 316 58 10**

---

## **SOHIBQIRON AMIR TEMURGA NISBATAN QILINGAN XIYONATLAR**

**Annotasiya:** Maqolada Amir Temurning hayoti va davlat boshqaruvi faoliyati davomida, unga o‘z yaqinlari va dushmanlari tamonidan qilingan xiyonat va xoinliklar borasida so‘z yuritiladi. Shuningdek, Amir Temurning taxtga chiqishiga qadar va taxtga o‘tirgandan keyingi davrlarda unga nisbatan qilingan xiyonatlarni, mamlakatimiz bo‘ylab “Temurbeklar maktablari” ochilishi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** To‘xtamishxon, Tug‘luq Temurxon, amir Husayn, Mo‘g‘uliston, “Loy jangi”, “Temur tuzuklari”, Ulug‘bek ko‘ragon, Qora Yusuf, Faxriddin Roziy, “Xadoiq ul-anvor”, “Sohibqiron izdoshlari”, “Temurbeklar maktablari”.

---

## **О ПРЕДАТЕЛЬСТВЕ ПО ОТНОШЕНИЮ ПОЛКОВОДЦА АМИРА ТИМУРА**

**Аннотация:** В статье говорится о предательстве и предательстве Амира Темура со стороны его родственников и врагов в период его жизни и государственно-управленческой деятельности. Также говорят о предательствах, совершенных в отношении Амира Темура до и после его восшествия на престол, об открытии «школ Темурбека» по всей нашей стране.

**Ключевые слова:** Тохтамыш-хан, Туглук-Темур-хан, Амир Хусейн, Монголия, «Битва при Лое», «Ловушки Темура», Улугбек Корагон, Кара Юсуф, Фахриддин Рази, «Хадик уль-Анвор», «Последователи СахибкIRON», «Школы Темурбека».

---

## **ABOUT BETRAYAL TOWARDS THE COMMANDER AMIR TIMUR**

**Abstract:** The article talks about the betrayal and betrayal of Amir Temur on the part of his relatives and enemies during the period of his life and government activities. They also talk about the betrayals committed against Amir Temur before and after his accession to the throne, about the opening of “Temurbek schools” throughout our country.

**Key words:** Tokhtamysh Khan, Tughluk Temur Khan, Amir Hussein, Mongolia, “Battle of Loy”, “Temur’s Traps”, Ulugbek Koragon, Kara Yusuf, Fakhriddin Razi, “Hadiq ul-Anvor”, “Followers of SahibkIRON”, “Schools of Temurbek”.

---

O‘z tariximizni bilish va yanada chuqurroq o‘rganishimizda Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi davlat arbobi va sarkardalarimiz faoliyatini o‘rganish muhim o‘rin tutadi. Bu o‘rinda Amir Temurning taxtga chiqishiga qadar va taxtga o‘tirgandan keyingi davrlarda unga nisbatan qilingan xiyonatlarni, bu holatlarga qarshi Amir Temur tamonidan ko‘rilgan chora-tadbirlar, uning

davlat boshqaruv sohasida katta tajribaga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu bo'yicha asosiy manba sifatida "Temur tuzuklari" asarini keltirib o'tsak-da, biroq Amir Temur faoliyatiga juda ko'p olim-u yozuvchilar ham katta qiziqish bilan qaraganligi ayni haqiqatdir. Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi milliy qahramonlarimiz faoliyati mustaqillikga qadar halqimizga qora bo'yoqlarda ko'rsatib kelingan edi. Shunday bo'lsada, yuqoridagi milliy qahramonlarimiz faoliyati haqida xolisona fikr bildirgan olimlar ham bo'lgan. Jumladan, "Temur tuzuklari"ni inglizchadan fransuz tiliga tarjima qilgan mashhur sharqshunos olim L.Langle o'zining "Temur hayoti" nomli asarida: "Temur olimlarga seriltifot edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofdilligini ko'rgan kishilarga ishonch bildirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek ilm-fan, idora va boshqa ishlarda bilimdon bo'lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko'pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Negaki Temur bu sohalarga g'amxo'rlik qilishga asosiy e'tibor berar edi" – deb yozgandi [1].

Venger tarixchisi Herman Vamberining "Temurni Chingizxon ila bir safga qo'yib, uni vahshiy, zolim, qaroqchi deb atagan kishilarning fikrlari ikki marta xatodir" – degan fikri e'tiborga molikdir[2, 48-b]. 2022-yil aprel oyida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Qashqadaryo viloyatiga tashrifi vaqtida Amir Temurning To'xtamishxon bilan jangi haqida o'qigani, Sohibqironning janglarni shaxsan o'zi boshqargani uning uchun yangilik bo'lganini ta'kidladi[3]. Tariximizning yuksak sahifalaridan o'rin egallagan Sohibqiron Amir Temur endigina yigirma to'rt bahorni qarshilagan navqiron vaqtida el-yurt boshiga og'ir kunlar tushgan paytlar edi. 1360-yili Mo'g'uliston xoni Tu'g'luq Temur katta lashkar bilan Movarounnahrda bostirib kiradi. 1361-yilgi yurishda mamlakatni deyarli bosib oladi. 1362-yil shoshilinch ravishda Tu'g'luq Temur Movarounnahrda o'g'li Ilyosxo'jani qoldirib, o'zi Mo'g'ulistonga qaytib ketadi. Ulusda parokandalik va beqarorlik hukm surgan o'sha vaqtlarda harakatchan va tadbirkor ikki amir: Temurbek bilan marhum amir Qazag'anning nabirasi Husayn ittifoq tuzishadi. Temur bilan Husayn 1361-1364-yillari birgalikda Amudaryoning narigi tarafida Koxmara, Daragez, Arsif va Balx viloyati atroflarida mo'g'ullarga qarshi kurash olib bordilar. Ular payt poylab daryoning o'ng tarafiga o'tib Termiz, G'uzor va Keshda turgan mo'g'ul lashkariga ham hujum qilib turdilar. 1363-1364-yilgi mag'lubiyatdan keyin ham Mo'g'uliston hukmdorlari tinib tinchimadi. Ilyosxo'ja 1365-yilning bahorida yana katta qo'shin to'plab, Movarounnahr va Turkiston ustiga qo'shin tortdi. Bu paytda Temurbek bilan Amir Husaynning mo'g'ullar bilan kurashda hali yetarli tajribasi va na ixtiyorlarida katta qo'shin bor edi. 1365-yil 22-may kuni erta tongda ikki o'rtada katta jang bo'ldi. Bu urush tarixda "Loy janggi" nomi bilan mashhur. Bu jangda Temur qo'shinining o'ng qanotiga boshchilik qilib, g'alaba nashidasi yaqinlashgan bir paytda Amir Husayn sustkashlik qiladi. U dushmanning so'l qanotiga hujum qilish o'rniga ortga chekinadi. Aynan mana shu jangdan so'ng, Temur va Husayn o'rtasida o'zaro dushmanlik boshlanadi. Loy jangidan so'ng, Amir Husayn Balxni mustahkam qo'rg'onga aylantirib, Balx, Qunduz va Badaxshondan ko'p sonli lashkar to'pladi. Amir Husayn Temurbekni tamoman o'rtadan ko'tarib tashlash payiga tushadi. Bu yovuz niyatini amalga oshirish uchun o'rtada bo'lgan ahdi-paymonni yangilash va do'stlik rishtasini yanada mustahkamlash niyatida Amir Husayn Temurbekka Chakchak darasida uchrashishni taklif qiladi. Amir Temur "Temur tuzuklari"da shunday deb yozadi: Amir Husayn: "Mening do'stlik va qarindoshlikni rioya qilishdan bo'lak niyatim yo'q" – deb Qur'on ustida qasam ichdi va o'sha Qur'onni menga jo'natdi. U yana mana bularni ham aytgandi: "Agar senga aytgan gaplarimga xilof biron ish tutish noiyatim bo'lsa va o'rtadagi ahd-paymonimni buzib senga yomonlik qilsam, shu ushlagan Qur'on – Xudoning kitobi meni ursin". Uni musulmon deb bilganim uchun so'zlariga ishondim[7, 47-48-b]. Ammo Amir Husayn yana xiyonat qildi. Amir Temur Husaynga yo'llagan maktubida shunday eslaydi: Bu xatim Amir Husaynga borib yetgach, ko'p hijolat bo'lib uyaldi, mendan uzr so'radi. Lekin men uning so'ziga ikkinchi bor ishonmadim[4, 48 b; 5, 9-14-b].

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlar, Amir Temurning Samarqandda taxtga o'tirishidan oldingi davrlarda yuz bergan bo'lib, bunday holatlar hokimiyatga chiqqandan keyin ham davom etganligi manbalarda aks etgan. Amir Temur 10 yil mobaynida Mo'g'ulistonga 7 marta harbiy yurish qilgan. Shu yurishlar mobaynida unga Kepak Temurdan xiyonat sodir bo'ladi. Amir Temur Mo'g'ulistonga yurish qilgan vaqtda dushman pistirmasining payiga tushdi. Pistirma ham biryoqlik qilindi, lekin ayni payt Amir

Musa bilan Zinda Chashmga o'xshagan ba'zi amirlarning mijozida tushunib bo'lmas kayfiyat sodir bo'ldi. Amirlarning bu harakati Sohibqironga uyat tuyuldi va yurishni to'xtatib qaytish haqida buyruq berdi. Lekin shu zahotiyoyq ularning orqasiga odam qo'ydi. Xufiyalar bir kuni, Turkistonda Adun ko'zi degan manzilda qo'nganlarida, kechasi bir necha odamning Amir Musaning chodirida to'planib, qandaydir majlis qurganlarini Sohibqironga kelib aytishdi.

Amir Temur kechasi tevarak - atrofda qorovullarni ko'paytirdi, Amir Muso bilan Zinda Chashmning chodiri atrofida o'z odamlarini qo'ydi. "Xizr Yasavuriyning o'g'li Abu Is'hoqni ham ko'zdan qochirmanglar" deb buyurdi. O'sha kuni uning tushiga otasi bilan piri Amir Kulol kirdi.

– Temurbek tich omonmu bek? Meni oni ko'rmog'onimga ancha bo'ldi, - dedi Amir Kulol.

– Tarag'ay bahodir ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib javob qildi:

– Men ham o'n yilcha bo'ldi, ko'rg'onim yo'q pirim. Eshitishimg'a qarag'anda lashkar birlan Jete ustiga ketg'on ermish.

– Bekor qilibdur – dedi pir bosh chayqab, – ichki g'animlarni bir yoqlik qilib saltanatni obdon mustahkamlab olmasdin turib, uzoq yurtlarga safar qilish xatarli ish bek. Yana Mo'g'ulistondayn uzoq mamlakatg'a – pir so'nggi gapni dona-dona qilib sal qattiqroq aytdi. Amir Temur shoshib pishib ko'zini ochdi. So'ng Sohibqiron nonushtani o'sha yerda qilurmiz deb chodiri sari endi bir ikki qadam tashlagan ham edi, meshda suv olib kelib quygan xizmatkor uning yo'lini to'sdi: U yoqqa aslo borako'rmang alohazrat. Uning so'zlaridan ma'lum bo'lishicha, chodir kechasi chor-atrofdan o'qqa tutilib, hammayog'i ilma teshik qilib yuborilibdi. Amir Temur "Alar birlan hisob-kitobni Samarqandg'a borg'och qilurmiz" – dedi ichida. Samarqandga qaytgandan keyin fitnachilar hibsga olindi. Fitnachilar o'sha Adun arig'i bo'yida u yerda buning iloji bo'lmagan taqdirda, Qorasomonda shikor paytida hazrat Sohibqironning joniga qasd qilmoqchi bo'lgan ekanlar[5, 195-199-b].

1376-yili Amir Temur Xorazm yurishiga o'tlanib, ayni paytda, amir Sori Bug'o, Odilshox jaloyir, Xitoy bahodir, Elchi Bug'o va yana boshqa bir qancha amirlarni Qamariddinni topib yo'q qilishi uchun yuboradi. Yo'lda Sori Bug'o bilan Odilshox xoinlik yo'liga kiradilar. Andijon dorug'asi Hammadoniy ham shu yo'sinda ish tutib, ularga qo'shiladi. Ular birgalashib Samarqand tomon yuradilar, biroq shahar aholisi mudofaani kuchaytirib dushmani kiritmaydi. Yov Buxoroga yo'l oladi. Bu voqeadan xabar topgan Amir Temur yarim yo'ldan qaytishga majbur bo'ladi[6, 97-b].

Amir Temur Oq O'rdada o'zaro kurashlardan foydalanib, To'xtamishni xonlik taxtiga o'tirishida katta xizmat qiladi. Biroq Amir Temurning kutgani bo'lmadi. To'xtamish o'g'lon tez orada valine'mati va tuz haqini unutdi. Oltin O'rdani ham qo'lga kiritib olganidan keyin Temur davlatiga nisbatan dushmanchilik siyosatini tutdi. Bu xususida Amir Temurning o'zi "Temur tuzuklari"da ma'lumotlarni keltirib o'tadi. 1391-yili Dashti Qipchoqqa qilingan dastlabki yurish besh oy davom etib, bu orada qo'shinda qahatchilik va tanglik ham yuz berdi. Ahvol shu darajaga borib yetganki, qo'shin bir necha kunlar atala oshi, ov go'shti va sahroyi qushlar tuxumi bilan ham kun kechirgan. Amir Temur qo'shinida oziq-ovqat taqchilligi sababli, askarlarda urush ishtiyoqi past edi. Shunday vaziyatda Amir Temurning farzandlari, nabiralari kelib jonbozlik ko'rsatgani hamda To'xtamishxonning bayroqdori bilan bo'lgan kelishuv jang natijasiga ta'sir qildi. Gap shundaki, Amir Temurning farzand va nabiralari tiz cho'kib, otalaridan urushga ruxsat so'rganligi haqidagi xabar tez orada qo'shin ichiga tarqalib, qo'shinda ham shijoat va g'ayrat paydo bo'ladi. To'xtamishxon bayroqdori bilan bo'lgan kelishuvga ko'ra esa, jang boshlanib, eng qizigan vaqtda, bayroqdor bayrog'ini tushirishi kerak edi. Va jang vaqti shunday ham bo'ladi. Albatta, bu holatda ham qiyin vaziyat bo'lishiga qaramay, jangni o'z foydasiga hal qilishda shubhasiz, Amir Temurning boshqaruvchilik, sarkardalik qobiliyati muhim ahamiyatga ega[4, 54-55 b]. Ma'lumki, 1391-yilgi mag'lubiyatdan so'ng, To'xtamish qochib ketadi. Iroqi Ajam va Forsga qilingan yurishlardan keyin 1395-

yil 28-fevral kuni To'xtamishxonga qarshi urushga otlandi. Bu jangdagi g'alaba natijasida shimol tarafdin bo'ladigan xavf bartaraf etiladi va karvon yo'llari Movarounnahr shaharlari bo'ylab o'tadigan bo'ldi.

1398-yili Hindistonga yurish vaqtida Afg'oniston hududida joylashgan Ayrob qal'asida ham Temur hayotiga suiqasd amalga oshiriladi. Afg'onlarning Karkas qabilasi yetakchilaridan biri Muso afg'on (Temurning nabirasi Pirmuhammadning vakili) Amir Temurning tarafdorlaridan bo'lgan Lashkarshohni o'ldirib, uning mulkini talaydi. Lashkarshohning inisi Malik Muhammad kelib Temurga arz qilgach, Muso afg'onni chaqirtiradi. Muso afg'on qal'ani Amir Temurga topshirgach, Amir Temur Ayrob qal'asini tamosha qilishga borganida, Muso afg'on askarlaridan biri, Amir Temurga kamondan o'q otadi. Amir Temurga qilingan bu suiqasd muvaffaqiyatsiz tugaydi va Muso afg'onga tegishli jazo tayinlanadi[4, 58-59 bet].

Xulosa qilib aytganda buyuk ajdodimiz ham xiyonatdan jabr chekkanlar. Lekin hech ham taslim bo'lmadi, iroda va qatiyatlikda o'zlarini namoyish etdilar va hozirgi avlodlariga o'rnak bo'larlik tarzda murakkab hayot yo'lini bosib o'tdilar. 2019-yilda O'zbekistonda "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyleri faoliyati joriy qilindi. Uning nomlanishi bo'yicha ham turli takliflar bo'lgan. Xususan, "Amir Temur avlodlari", "Temuriylar", "Sohibqiron izdoshlari" kabi variantlar bor edi. Tarixchi olim Akbar Zamonov aynan "Temurbeklar" nomi tanlanganiga sabab, Amir Temur "Amir" maqomiga 1366-yilda erishadi. Bunga qadar 26-30 yoshgacha u "Temurbek" bo'lgan. Ya'ni, hozirgi kunda muassasa o'quvchilarining yoshidan kelib chiqib, ularning hozirgi holati Amir Temurning xos davridagi holatiga qiyoslangan. Ular hozir aynan Temurbekning yoshida – deya ta'kidlaydi olim[8]. Bugungi kunda "Temurbeklar maktabi" bitiruvchilariga mamlakatimiz oliy, oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda imtiyozlar beriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xolmaxamatova Sh. Sohibqiron Amir Temur – adolatli hukmdor va yuksak ma'naviyat egasi. Xalq so'zi, 2021 y, 9 aprel. <https://xs.uz/uz/post/sohibqiron-amir-temur-adolatli-hukmdor-va-yuksak-manaviyat-egasi>
2. Вамбери Х. Бухоро ёки Мовароунна тарихи. Тошкент., 1990. 48-б
3. Латипов Ш. Амир Темурнинг жанглarda ғолиб бўлиш мероси ўрганилмаган. Газета.уз. 21 aprel 2022, <https://www.gazeta.uz/uz/2022/04/21/amir-temur/>
4. Temur tuzuklari. Toshkent. Ijod-press, 2019. 160-bet
5. Ahmedov B. Sohibqiron Temur. Toshkent., Abdulla Qodiriy. 1996. 186-bet
6. Ahmedov B. Amir Temur. Toshkent., Abdulla Qodiriy. 1996, 195-199-bet
7. Bo'riyev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. Toshkent. O'zbekiston. 1997, 97-bet
8. Оқбоева М. Amir Temur hayoti haqidagi qiziqarli tarixiy faktlar. Газета.уз. 9 aprel 2022, <https://www.gazeta.uz/uz/2022/04/09/amir-temur/>